

**QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI TAYYORLOV VA SOTISH
XIZMATLARINI BOSHQARISH**

Ishturdiyev Xasan Abdigapparovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tayyorlov va sotish xizmatlarini tashkil etishda agrokonsalting xizmatlaridan foydalanishni yanada takomillashtirish hamda ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini oshirish imkoniyati. Xususan qishloq xo'jaligida meva-sabzavotlarni sifatli saqlash hamda qadoqlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni konsalting xizmatlaridan foydalangan holda axborot xizmatlarini tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi maxsulotlari, inovatsiya, agrokonsalting, xo'jaligi maxsulotlarini saqlash, axborot texnologiyalari.*

Аннотация: В данной статье имеется возможность дальнейшего совершенствования использования агроконсультационных услуг при организации услуг по заготовке и реализации сельскохозяйственной продукции и повышения их значимости в сельском хозяйстве. В частности, представлена аналитическая информация об экономических отношениях, связанных с организацией информационных услуг с использованием консультационных услуг передового зарубежного опыта по качественному хранению и упаковке плодоовощной продукции в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Сельскохозяйственная продукция, инновации, агроконсалтинг, хранение сельскохозяйственной продукции, информационные технологии.

Abstract: This article provides the opportunity to further improve the use of agricultural consulting services when organizing services for the procurement and sale of agricultural products and increasing their importance in agriculture. In particular, analytical information is presented on economic relations related to the organization of information services using consulting services of advanced foreign experience in high-quality storage and packaging of fruits and vegetables in agriculture.

Key words: Agricultural products, innovation, agricultural consulting, storage of agricultural products, information technology.

Meva-sabzavotlarni sifatli saqlash va qayta ishlash ko'p jihatdan hosilot, iqtisodchi va zoomuhandislarga bog'liq. Ular va boshqa qishloq xo'jalik xodimlariga mahsulotlarni saqlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mahsulotlarni va urug'lik fondini imkoniyati boricha yo'qotmasdan hamda sifatini tushurmasdan saqlash;

2. Mahsulotlarni saqlayotgan paytda tegishli texnologik usullar va rejimlar qo'llab ularning sifatini yanada oshirish;

3. Oz mehnat va sarf harajat qilib, mahsulotlarni saqlashda rentabellikni oshirgan holda saqlash.

Oxirgi masala juda zarur bo'lib, ba'zi mahsulotlarni saqlashda (kartoshka, karam va boshqalar) harajatlar mahsulotni ishlab chiqarishdagi qiymatidan ham ortib ketadi.

Meva-sabzavotlar sifati o'simlikning o'sishi va rivojlanishi hamda hosilning hajmi, kimyoviy tarkibi, tovarligi va saqlanishi asosan yetishtiradigan sharoitga bog'liqdir.

Uzoq muddatga saqlashga va turli konservalash maqsadlariga mo'ljallangan, sifatli mahsulot olish muammolari har bir yetishtirish mintaqasiga mos keladigan tur, navning tanlashga va shunga yarasha agrotexnik tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, uning biologik xususiyatlariga to'g'ri kelishi kerak.

Mamlakatimizda 30 ga yaqin meva-sabzavotlar yetishtiriladigan mintaqalar mavjud bo'lib, ularning ob-havo va tuproq sharoitlari bir-biridan keskin farq qiladi. Boshqa tomondan mintaqalarni o'zlariga mos keladigan o'simlik tur va navlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lishi kerak.

Sifatli meva-sabzavotlar, ayniqsa kartoshka va ildizmevalilarni yetishtirishda tuproq xususiyatlari, birinchi navbatda uning mexanik tarkibi yengil tuproqlarda (qum va qumloq) yetarli oziqa moddalariga va namga ega bo'lsa, yuqori oziq-ovqat sifatlariga yega bo'lgan kartoshkaning mo'l hosili olinadi. Mevalar yaxshi yetilib, ularda qalin po'stloq yuzaga kelib, shakllansa ularda tinim davri o'z vaqtida boshlanadi va turli fitopatogen mikroorganizmlarga nisbatan qarshiligi oshadi, mevalar yaxshi saqlanadi.

Tuproq turlari ayniqsa ko'p darajada uzum hosilining hajmi va sifatiga ta'sir etadi. Bu o'simlik drenaj qilingan, tezda qiziydigan va karbonatlarga boy bo'lgan tuproqlarda yaxshi o'sadi va hosil beradi. Hozircha ob-havo sharoitlari o'zgarishlarga yerishilayotgani yo'q (do'l yog'diriladigan bulutlarni artileriya moslamalari yordamida tarqatish bundan mustasnodir).

Namlikning ortiqchaligi o'sish davrini uzaytiradi va meva-sabzavotlarni yetilish muddatlarini orqaga suradi hamda ularning kimyoviy tarkibidagi komponentlari miqdorining yig'ilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'stirish mavsumidagi ob-havo sharoitida yetishtirilgan mahsulotlarni saqlashda ularning holatini va muhitini muntazam ravishda kuzatib borish zarur.

Sug'orish va o'g'itlash hosil hajmini oshirishda va uning sifatini yaxshilashda xizmat qiladi. Ammo sug'orish va o'g'itni noaniq miqdorda qo'llash salbiy natijaga, ya'ni sifat ko'rsatkichlarini pasayishiga, ayniqsa meva-sabzavotlarni yomon saqlanishiga olib keladi. Sug'orish va o'g'itlashdan tashqari, meva-sabzavotlarni sifatiga va saqlanishiga agrotexnik tadbirlarning boshqa usullari ham muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin (qirqish, xomtok, o'sishini susaytiruvchi moddalar qo'llash va nihoyat hosilni yig'ishni to'g'ri tashkil etish kiradi).

Meva-sabzavotlarni saqlashdagi asosiy vazifa ularning fizikaviy va kimyoviy tarkibini, ya'ni tashqi ko'rinishi rangi, ta'mi, hamda oziq-ovqat qiymati va boshqa xususiyatlarini saqlab qolishdan iborat.

Meva-sabzavotlarni oz miqdorda yo'qotib saqlanish xususiyati ularni saqlashga chidamliligin belgilaydi. Meva-sabzavotlarni mikroorganizmlar bilan ta'sirlanishiga qarshilik ko'rsatish xususiyati ularning immunitetligi deb yuritiladi. Mahsulotlarning saqlashga chidamligi ularni qulay sharoitda saqlash muddati bilan aniqlanadi. Meva-sabzavotlarni saqlash chidamliligi ma'lum mintaqa va fasl, agrotexnik va texnologik rejimda namoyon bo'lishi saqlanuvchanlik deb ataladi. Saqlanuvchanlik odatda saqlash davrida mahsulotlarni yo'qotish og'irligini foizlarda hisoblangan miqdori bilan belgilanadi. Umuman olganda meva-sabzavotlarning saqlashga bo'lgan chidamliligin o'zi tabiiy xususiyatdir. Shuningdek bir navning o'zi har xil sharoitda yetishtirilishiga qarab turlicha saqlanishi mumkin. Meva-sabzavotlarni saqlashga bo'lgan chidamliligi ko'p omillarga bo'liq. Mevalarning katta-kichikligi, zichligi, po'stining qalinligi, shakli va po'stining butunligi, rangi hamda boshqa ko'rsatkichlari ma'lum nav uchun xos bo'lsa bunday mevalar yaxshi saqlanadi. Mevalarning o'ziga xos xususiyatlaridan cheklanishi ularning saqlanuvchanligini susaytiradi.

Meva-sabzavotlar hosilini yig'ib olingandan keyingi biologik xossalari ko'ra uch guruhga bo'linadi: kartoshka va ikki yillik sabzavotlar; mevalar va mevali sabzavotlar, ko'katlar, rezavor mevalar va danakli mevalarning ko'pchiligi.

Kartoshka va ikki yillik sabzavotlarning saqlashga chidamliligi ularda kechiladigan fiziologik tinim davriga bog'liq. Bu mexanizm xujayralarning o'ziga xos o'zgarishi va moddalar almashinuviga bog'liq bo'ladi. Masalan: kartoshka va piyozlarda fiziologik tinim davri ancha uzoq bo'lib, unda o'suv nuqtalari hatto qulay sharoitda ham uyg'onmaydi. Fiziologik tinim davrida mahsulotlarning tabiiy yo'qotilishi juda kam bo'lib, sifati esa deyarli o'zgarmaydi.

Meva-sabzavotlarning saqlashga chidamliligin ularni yig'ilgandan keyingi yetilish davrining davomiyligiga qarab baholanadi. Mevalar yig'ilgandan so'ng ularda bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar natijasida urug'i, kurtagi va meva mag'zining to'la shakllanishi yig'ishtiriladigan keyingi yetilish davrining davomiyligi bilan mevalarning saqlanish muddati ham aniqlanadi. Yetilish davri qancha davom yetsa, uni saqlash muddati ham shuncha uzoq bo'ladi.

Meva-sabzavotlarni saqlash jarayonida ularning fizik xususiyatlarini bilish, saqlashda bu xossalardan ilmiy asosda foydalanish muhim hisoblanadi. Ularning fizik xossalari mahsulotni yig'ib-terib olishda, tashishda hamda saqlashda katta ahamiyatga ega. Meva-sabzavotlarning fizik xossalari ularning suv bug'latishi, terlashi, issiqqlik almashinuvi, mexanik pishiqligi, sochiluvchanligi, o'z-o'zidan navlarga ajralishi, g'ovakligi va boshqalar kiradi. Mevalar saqlashning dastlabki kunlarida suvni juda tez bug'latadi, ya'ni mevalar o'z tarkibidagi erkin suvdan xalos bo'ladi.

Meva-sabzavotlar idishga to'kma holda qalin qilib va ustidan havo o'tishi uchun ochiq joy qoldirmay joylanganda ular terlay boshlaydi. Yashik yoki uyum o'rtasidagi

harorat odatda ombor haroratidan yuqori bo'ladi. Shu sababli ular tez buziladi, chunki sirtidagi namlik turli mikroorganizmlarning rivojlanishiga qulay sharoit tug'diradi.

Fizik xossalardan yana biri sochiluvchanlik xususiyati ham meva-sabzavotlarni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Ular turli xil shakl va o'lchamda bo'lganligi uchun ularning to'kiluvchanligi past bo'ladi. Mahsulotlarning o'z-o'zidan saralanishini oldini olish uchun ularning o'lchamlariga qarab navlarga ajratish va katta-kichikligiga qarab kalibrovka o'tkazish muhim hisoblanadi. Bunda mahsulotlarni tuproq, qum va boshqa chiqitlardan ham tozalash mumkin.

Saqlash davomida mahsulotlar orasidagi havoning almashinushi ularning g'ovakligiga bog'liq. Meva-sabzavotlarning 1 metr kub uyumidagi bo'shlik hajmi ularning g'ovakligi deb yuritiladi. Odatda g'ovaklik 30-50% gacha bo'ladi.

Meva-sabzavotlarni saqlashda asosiy saqlash sharoiti – harorat, havoning nisbiy namligi va gaz muhitining tarkibiga bog'liq. Haroratni pasaytirish mahsulotlarni saqlash davrida biokimyoviy jarayonlarni sekinlashtiradi, shuningdek, fitopatogen mikroorganizmlarning rivojlanishini cheklaydi. Shuning uchun sun'iy sovutiladigan omborlarning bunyod yetilishi sabzavot va mevalarni uzoq muddat saqlashga yerishiladigan yo'llardan biridir.

Meva-sabzavotlarni saqlash uchun sun'iy usulda - sovutgichlarda va tabiiy usulda shamollatish tashqi havo yordamida sovutiladi. Meva-sabzavotlarni muzlashi -0,5 dan -30 gacha ro'y beradi. Mevalarning muzlash harorati ular tarkibidagi suvning miqdoriga bo'liq. Meva-sabzavotlarni haroratga nisbatan munosabati bir-biridan tubdan farq qiladi. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 00 dan biroz past va biroz yuqori haroratda yaxshi saqlanadigan - piyoz, sarimsoq, karam; olma, olxo'ri va uzumning ba'zi navlari; ammo bunday harorat urug'lik sabzavotlarga to'g'ri kelmaydi; 00 ga yaqin va undan biroz yuqori haroratda yaxshi saqlanadigan - bu guruhga meva-sabzavotlarning ko'pchilik tur va navlari to'g'ri keladi.

2-asosiy sharoit bu sabzavot va mevalarni saqlashdagi havoning nisbiy namligi. Ko'pchilik sabzavot va mevalar uchun havoning nisbiy namligi 90-95 %, piyoz va sarimsoq uchun esa eng past ya'ni 75 % bo'ladi. Chunki ularni bundan yuqori namlikda saqlansa bo'g'in kasalligiga duchor bo'lishi aniq. Ombordagi havoning solishtirma birligi va tarkibi saqlanadigan mahsulotda kechadigan biokimyoviy jarayonlarga, shuningdek, tovar holatiga va isrofiga ta'sir yetuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Terilgan sabzavot va mevalarni saralash joyiga tashish, ularni qayta ishslash korxonalariga yoki temir yo'l stansiyasiga jo'natish uchun xo'jalik ixtiyorida yetarli miqdorda avtomashina va aravalor bo'lish kerak. 1000-1500 hektar va undan ortiq bog' va tokzori bo'lgan yirik xo'jaliklarga tor izli temir yo'l qurilgani ma'qul. Bu holatda vagonchalar mexanizmlar yoki ot arava qo'shib yurgaziladi. Bo' va tokzorlar kengligiga qarab bir yoki bir necha yo'l quriladi. Yig'ib olingan hosil tor izli temir yo'lidan ma'lum joygacha tashilgandan so'ng, vagonchalarga ortiladi va meva joylash bostirmasiga olib boriladi. Vagonchalar qaytayotganda to'xtash joylariga bo'sh idishlarni tashlab ketadi.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

Shu tashish usulida mahsulot kam shikastlanadi. Undan nafaqat meva tashishda, balki bo' va tokzorlarga go'ng chiqarish, ishchilarni keltirish va shunga o'xshash boshqa maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Unga ega bo'lgan xo'jaliklarda ot-ulov va avtomashinalardan kam foydalaniladi.

Meva uzumlarni uzoq manzillarga tashishda shuningdek, maxsus sovutgichli avtomashina va aviasiyadan ham foydalaniladi.

Mevalarning joylash usuli ham saqlanuvchanlikka ta'sir ko'rsatadi. To'kma holda joylangan mevalar qatorlab terib joylanganlariga qaraganda yomon saqlanadi. Qog'ozga o'rالgan mevalar qirindiga qaraganda yaxshi saqlanadi, chunki qog'ozda maxsus mikroiqlim hosil bo'lib, u saqlash uchun birmuncha qulaydir. Somonga joylangan mevalar tez buziladi, chunki u sorbent bo'lganligidan tez namiqib qoladi. Chirigandan keyin hidi mevalarga o'tadi. Po'kak qipig'iga joylangan hosil yaxshi saqlanadi. Meva-sabzavot saqlanadigan omborlarning bir necha xili bor. Ayrimlarini qurish arzonga tushadi, ammo ular takomillashgan va sovutgichsiz bo'ladi, boshqalarda sun'iy sovutgichi bo'ladi. Lekin har qanday ombor izotermik bo'lishi kerak.

Birinchi xilda meva saqlanadigan yerto'la omborlar kiradi. Mevalar sovutgichli omborlarda yaxshi saqlanadi. Omborning harorati termometr va havoning nisbiy namligi psixrometr yordamida kuzatiladi. To'plangan ma'lumotlar yozuv kitobiga qayd yetilib boriladi. Undan tashqari bino ichi meva qo'yish uchun so'kchak va qutilar uchun tagliklar bilan jihozlanadi, shamollatish quvurlari tayyorlab qo'yiladi.

Ombor maydoni mevalarni saqlash usuliga qarab aniqlanadi. Mevalar piramida shaklida to'kma qilib saqlanadigan bo'lsa, uch qavatli maxsus so'kchaklar quriladi. Bu qavatlar orasida 70 sm, so'kchaklar orasidagi yo'l 1 metr.

Agar hosil qutilarda saqlansa ular taxlab qo'yiladi. Qutilarni taxlab qo'yish usuli juda ko'p: ular to'g'ri to'rt burchakli, shaxmat usulida, ikkitadan, uchtadan, to'rttadan, beshtadan qilib taxlanadi. Kartoshka va boshqa sabzavotlar doimiy va vaqtinchalik omborlarda saqlanadi.

Aholini yil davomida ho'l sabzavot va mevalar bilan muntazam ta'minlash uchun xo'jaliklarda omborlar qurishni keng joriy qilish kerak. Kartoshka, sabzavot va mevalar saqlashga mo'ljallangan omborlar ko'plab ta'riflari bo'yicha farq qilib, ulardan eng muhimlari quyidagilar: maqsadli mo'ljallah, rejalah va hajmi, qurilish-konstruktiv xususiyatlari, saqlash sharoitini tartibga solish yo'llari, mahsulotni joylashtirish usullari, ortish-tushurishni mexanizasiyalashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Meva-sabzavotlarni tabiiy shamolatiladigan oddiy omborlar bilan bir qatorda sun'iy shamolatiladigan omborlardan foydalanish keng joriy qilinmoqda. Ularda saqlash tartibining barqarorligi ta'minlanadi va shunga qarab meva-sabzavotlarni uzoq muddat davomida sifatli saqlashga erishiladi. Sovutgichlar nafaqat yirik aholi manzillariga, balki meva-sabzavot yetishtiradigan xo'jaliklarda ham qurilgan.

Sovutgichlarda meva-sabzavotlarni faqat idishlarda joylashtirish zarur. Buning uchun quyidagi idishlardan foydalaniladi: 1) kichik hajmli yashiklar ular bo'sh

saqlanadigan mahsulotlar: uzum, danakli mevalar, pomidorlarni saqlash meva tashish uchun foydalaniladi; 2) o'rta hajmdagi yashiklar-urug'li va sitrus mevalar uchun; 3) yirik hajmli konteynerlar, mexanik ta'sirlarga chidamli bo'lgan meva-sabzavotlarni saqlash va tashish uchun ishlataladi.

Sovutgichlarda meva-sabzavotlarni saqlash uchun joylashtirish va ortish-tushurish ishlarni amalga oshirishda mexanizasiyalarni keng qo'llash saqlash paytida tashishda qo'l mehnatini keskin kamaytiradi va yaxshi iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Sabzavot kartoshka hamda boshqa ildiz mevaliklarni saqlashda vaqtinchalik omborlar-xandak va uyumlardan foydalaniladi.

Tuman fermer xo'jaliklari tomonidan tayyorlagan asosiy maxsulotlardan: paxta va g'alla misolida mahsulot sotish holatini tahlil qilib o'tamiz.

Past darg'om tumanida paxta boshqa hududlar singari faqat paxtani qayta ishlash zavodiga sotiladi. Tahlilda monopsoniya holatidan kelib chiqib, paxta xom-ashyosini navlar bo'yicha o'rganildi.

1-jadval

Past darg'om tumanida tayyorlangan paxta xom ashysining navlari bo'yicha tahlili

№	Ko'rsat-kichlar	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2020 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarish, +/-	
		sotish bahosi, ming so'm/tonna	mahsulot miqdori, tonna	sotish bahosi, ming so'm/tonna	mahsulot miqdori, tonna	sotish bahosi, ming so'm/tonna	mahsulot miqdori, tonna	sotish bahosi, ming so'm/tonna	mahsulot miqdori, tonna
1.	Jami	449,5	47344	498,8	43155	638,1	46178	188,6	-1166
	SH.j.								
-	1-nav	454,2	37220	515,8	20848	649,8	36452	195,6	-768
-	2-nav	437,8	8435	509,4	8760	620,3	5302	182,5	-3133
-	3-nav	415,6	1277	489,7	5766	582,4	2955	166,8	1678
-	4-nav	380,1	318	468,9	4270	545,2	1045	165,1	727
-	5-nav	310,8	94	423,3	3511	475,6	424	164,8	330

Manba: Past darg'om turmani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

1-jadval ma'lumtlaridan ko'rinish turibdiki, 2010 yilda tumanda tayyorlangan paxta xom ashysining 36452 tonnasi 649,8 ming so'm/tonnadan sotilgan bo'lib, 1-nav paxta xom ashysi bahosi 2-navga nisbatan 29,5 ming so'mga qimmatroq va 2008 yilga nisbatan 195,6 ming so'mga oshgan, 2-nav paxta xom ashysining sotish bahosi esa 182,5 ming so'mga oshganligi paxtachilikda ishlab chikarilgan mahsulotni imkon qadar yuqori navlarga sotish samaradorlikni yanada oshirish mumkinlagini ko'rsatadi. Tumanda esa 2008-2010 yillar mobaynida yuqori nav paxta xom ashylari mikdori kamayib, 3-5 nav paxta xom ashysi miqdorida o'sish kuzatilgan. Bu tuman fermer xo'jaliklarida paxta xom ashysini yuqori navlarga sotish bo'yicha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

G'alla ishlab chiqarishda esa fermer xo'jaliklari ishlab chikarilgan g'alla mahsulotini davlat buyurtmasi asosida, mehnat haqi hisobidan o'z xodimlariga,

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

dehqon bozorlarida, kichik tegirmon, sanoat korxonalari, yordamchi xo'jaliklarga sotib kelishmoqda (2-jadval).

2-jadval

Past darg'om tumanida tayyorlangan g'alla mahsuloti sotishning tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2020 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarish miqdoriy, +/-	
						miqdoriy, +/-	nisbiy, %
1.	Jami ishlab chiqarilgan mahsulot	tonna	97500	102318	105855	8355	108,6
-	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	235	221	260	25	110,6
-	Jami daromad	mln so'm	22913	22612,3	27522,3	4609,3	120,1
2.	Davlat buyurtmasiga sotilgan mahsulot	tonna	68745,8	75000,4	71302,9	2557	103,7
-	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	180	185	190	10	105,6
-	Jami mahsulot qiymati	mln so'm	12374,3	13875,1	13547,5	1173,3	109,5
3.	Xo'jaliklar ixtiyorida qolgan mahsulot	tonna	28754,2	27317,6	34552,1	5798	120,2
sh.j.:							
a	Mehnat haqi hisobiga sotilgan mahsulot	tonna	19489,8	18363,5	17925,3	-1564,5	92
-	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	194	185,8	204,2	10,2	105,3
-	Jami mahsulot qiymati	mln so'm	3781	3411,8	3660,4	-120,6	96,8
b	Bozorda sotilgan mahsulot	tonna	6407,3	6014,1	3308,8	-3098,5	51,6
-	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	416	373	503	87	120,9
-	Jami mahsulot qiymati	mln so'm	2665,4	2243,3	1664,3	-1001,1	62,4
v	Boshka kanallarda sotilgan mahsulot	tonna	2857,1	2940	13318	10461	466,1
-	1 tonna mahsulot sotish bahosi	ming so'm	650	615	920	270	141,5
-	Jami mahsulot qiymati	mln so'm	1857,1	1808,1	12252,6	10395,5	659,8

Manba: Past darg'om tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'yim ma Tumotlan

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, g'alla bahosi davlat buyurtmasi va mehnat haqi hisobiga sotish kanallari boshqa kanallardan 2-3 martaga qadar past bo'lganligini ko'rsatadi. Bu kelgusida fermer xo'jaliklari tomonidan g'allani davlat harid baholarini qayta ko'rib chiqishni va boshqa sotish kanallari bo'yicha fermer xo'jaliklarining mahsulot sotish miqdorini oshirib borish kerakligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:

1. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.
2. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

4. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
5. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).
6. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.
7. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.
8. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
9. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
10. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.
11. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
12. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.
13. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.
14. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.
15. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
16. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.
17. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UNDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

18. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.
19. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.
20. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.
21. Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.
22. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.
23. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.
24. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.
25. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.
26. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
27. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.
28. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
29. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
30. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

31. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
32. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World of Science*, 6(4), 345-351.
33. Абдигаппарович, И. X., & Юлдашев, Ш. X. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 361-368.
34. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.